

MUZEYLAR TARIXI VA FAOLIYATI, HOZIRGI KUNDA ULARNING AHAMIYATI. MUZEYLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH UCHUN KO'RILYOTGAN CHORA TADBIRLAR

Ergasheva Shaxista Abduragim qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy

rassomlik va dizayn instituti

“Muzey menejmenti va madaniy turizm”

yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola muzeylar taxiri va faoliyati va hozirgi kundagi zamonaviy shakllarining turlari to‘g‘risidadir. Muzey faoliyatini yanada takomillashtirish uchun olib borilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: muzey faoliyati, maktab, litsey muzeyning zamonaviy faoliyati, qarorlar.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена истории и деятельности музеев и типам их современных форм сегодня. О принятых мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности музея.

Ключевые слова: музейная деятельность, школа, лицей, современная деятельность музея, решения.

ABSTRACT

This article is about the history and activity of museums and the types of their modern forms today. About the measures taken to further improve the museum’s activities.

Keywords: museum activity, school, lyceum, modern activity of the museum, decisions.

Insoniyat hayoti davomida, avvalo, muzeylar Yunonistonda paydo bo‘lgan. Muzey-yunoncha so‘z bo‘lib, muza, muzeun so‘zidan kelib chiqqan. Muzeun – bu go‘zal buyumlar saqlanadigan joy degan ma’noni anglatadi. Dastlabki muzeylar ham aynan funksional jihatdan hozirgi muzeylardan unchalik farq qilmagan. Ular ham noyob buyumlarni saqlash va namoyish qilish vazifasini bajargan. Ammo qadimda muzeylar alohida muassasa sifatida faoliyat ko‘rsatmasdan, ma’lum vaqtarda yoki

birorta tadbir tarkibida o'tkazilgan, shuningdek, buyumlarga eksponat sifatida qaralmagan, balki kolleksiya namunasi sifatida e'tibor berilgan. Chunki turli mavzulardagi noyob buyumlar aholining o'ziga to'q tabaqasi, amaldorlardan iborat kolleksionerlar tomonidan yig'ilgan, oddiy xalqning noyob kolleksiyalarini yig'ishga qurbi yetmagan va yig'ilgan kolleksiyalar xalqqa namoyish etilgan.

Antik davrda Yunonistonda kolleksiyalar yig'ish keng avj ola boshlagan. Yunonistondagi Gelikon tog'i yonida turli tasvirdagi yodgorliklar saqlanadigan joy muzeylarning ilk ko'rinishlaridan biri hisoblangan. San'at, madaniyat va fanda erishilgan yutuqlarning namunalaridan iborat kolleksiyalar toplash Yevropada Uyg'onish davrida dastlab, Italiyada, so'ng esa Angliya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda an'anaga aylandi. Italiyada XV asrda moddiy-madaniy buyumlarni yig'ish va namoyish etish ishlari aniq tizim asosida tashkil etilgan bo'lsa, XVI-XVII asrlarga kelib, Fransiya, Angliya, Germaniyada ham muzeylar tashkil etish odad tusiga kirgan. 1753-yil ochilgan Londondagi "Britaniya muzeyi", 1793-yil tashkil etilgan Parijdagi "Luvr" muzeyi G'arbiy Yevropadagi ilk ommaviy muzeylar sanaladi.¹

Muzey tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni toplash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasadir. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriylar narsalar, shuningdek, san'at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega qo'lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi. Siyosiy, ilmiy, madaniy, iqtisodiy ehtiyojlarni qondiruvchi muzeyning paydo bo'lish tarixi uzoq qadimga borib taqaladi. Muzeyning o'tmishdoshlari tabiat va ijtimoiy hayotdan olingan asl buyumlarni xo'jalik maqsadlarida va moddiy boylik sifatida emas, balki memorial guvohnoma va estetik qimmatli asl narsalar sifatida saqlana boshlagan davrda yuzaga kelgan.

XIX asrga kelib dunyo miqiyosida ko'plab yirik muzeylar vujudga keldi. 1819-yilda Madriddagi "Prado muzeyi", 1873- yilda Moskvadagi "Tarix muzeyi", 1852-yilda Sankt-Peterburgdagi "Ermitaj", 1870- yilda Nyu-Yorkdagi "Metropoliten" muzeylarini misol qilib keltirish mumkin. Jahon miqiyosida ko'plab muzeylar tashkil topyotgan paytda, O'rta Osiyoda ham katta muzeylar barpo etilgan. Toshkentda ilk muzey 1876- yilda ochilgan, u hozirgi "O'zbekiston tarixi davlat muzeyi"dir. Yurtimizdag'i dastlabki muzeyning faoliyati A.P.Fedchenko, N.A. Mayev, V.F.Oshanin, I.V.Mushketov, V.V.Bartold kabi olimlarning sa'y-harakatlari va tashabbuslari bilan shakllanib borgan.²

¹ <https://oliymahad.uz/>

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>

XX asrdan boshlab yurtimizda uy-muzeylar ham tashkil etila boshlandi. Ayniqsa, 1991-yil O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng yurtimizda rivojlanish jarayonlarida muzeylar faoliyatida ham keng o‘zgarishlar ro‘y berdi. 1994-yil 23-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilindi.¹ Ayni shu qaror asosida o‘rganilayotgan “O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi” yangidan ta’mirlandi. Hozirgi kunda “O‘zbekiston Davlat san’at muzeyi”da qayta ta’mirlanish ishi yanada jadal tarzda olib borilib, muzeyning filiali ham barpo etilgan hamda muzeyning asosiy binosi uchun yangi bino barpo etilishi rejalashtirgan.

Millatimizning o‘zligini anglashda hamda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o‘rin tutadi. Muzeylar orqali o‘tmishni, tarixni ko‘rish, eslash, sezish, o‘rganish mumkin. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta’mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e’tibor berildi. Shu jumladan, 1996-yili Toshkent shahrida Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi, 2002-yili Qatag‘on qurbanlari xotirasi, Surxondaryo viloyatining markazi - Termiz shahrida Arxeologiya muzeyi ish boshlagan.

O‘zbekiston Prezidentining 1998-yildagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatimizda muzey ishini rivojlantrish istiqbollarini belgilab berdi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta’mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat budjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish, moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1998-yilda “O‘zbekmuzey” Respublika jamg‘armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshi-rishga ko‘maklashuvchi “Moziydan sado” jurnali ta’sis etildi va u 1999-yildan boshlab o‘zbek, rus va ingлиз tillarida nashr etila boshlandi.

Yoshlar ma’naviyatida muzeylarning ahamiyati hisobga olinib, 2014-yil Vazirlar Mahkamasining qarori bilan haftaning seshanba va juma kunlari va har yakshanba bolalar va ularning ota-onalariga bepul xizmat ko‘rsatish, har yili 2-8-sentabr kunlari “Muzeylar haftaligi”ni tashkil etish belgilangan. Bu qarorlarning ijrosi har doim ta’minlanib kelinmoqda.

Shunday qilib, davlat madaniy hayotning ko‘p qirrali xususiyatini saqlagan holda jamiyat rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratishga e’tibor qaratib kelmoqda. Shuningdek, madaniyat O‘zbekiston aholisining asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlarga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Yurtimizda 30 yoshgacha bolgan fuqarolar aholi sonining 60% ga yaqinini tashkil qiladi.

¹ <https://www.lex.uz/uz/>

Shuningdek, yurtimizda bir qancha yangi muzeylar tashkil etilishi mustaqillik yillarida muzey sohasiga bo‘lgan e’tiborning naqadar rivojlanib borganligini ko‘rsatadi. Jumladan, 1996-yil 14-avgust kuni “Olimpiya shon-shuhrati muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”, 1997-yil 24- yanvarda “Temuriylar tarixi Davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”, 2002-yil 8-noyabr kuni “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi. Yurtimizda 1991-1994-yillarda 73 ta muzey mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2017-yilda 450 ga yaqin muzey faoliyat olib bormoqda

Mamlakatimiz muzey sohasini rivojlantirish bugungi kunda olib borilayotgan islihotlar va taraqqiyot rejamizning dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Buning uchun muzeylardagi ashyo va kollektsiyalarni chuqur o‘rganib, ularning bebaho qadr-qimmatini xalqimizga oolib berish, bular to‘g‘risida yoshlar ongida nazariy bilimlarini boyitish lozimdir.

Mamlakatimizda ochilyotgan uy-muzeylar ham jamiyatda o‘rniga egadir. Abdulla Qahhor uy-muzeyi, Yunus Rajabiy uy-muzeyi, G‘afur G‘ulom uy muzeyi, Sergey Borodin uy-muzeyi, Muxtor Ashrafiy uy-muzeyi, Hamid Olimjon va Zulfiya uy-muzeyi, Sharof Rashidov uy-muzeyi kabi bir qator uy-muzeylarimiz faoliyat olib bormoqda.

Hozirgi kunda muzeylarning zamonaviy faoliyati bir qancha oldinga qadam tashlagan. Xususan, muzeyda bir kecha, muzey ekskursiyalari turlari (dialog, monolog), muzeyning sayyor kuni, muzey klublari, muzey o‘yinlari, mahorat darslari, muzeyning bepul xizmat ko‘rsatish kunlari kabi zamonaviy faoliyatlarini olib bormoqda. Bog‘cha, maktab, litseylar va institut kabi ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda faoliyatlarini yo‘lga qo‘yganlar. O‘quvchilar o‘z nazariy olgan bilimlarini amalda ham bemalol ko‘rib, o‘rganib bilib olishlari mumkin bo‘ladi. Har bir maktab, bog‘chada mini muzey tashkil etilsa, foydadan holi bo‘lmaydi. Unda muzeyda tartib, madaniyat saqlash, o‘zini tuta bilish kabi bilim-ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi. Muzey jamiyatida esa noqulay vaziyatlarga tushishning oldini olishgan bo‘lishadi.

Mahorat darslari o‘z hunarining mutaxassisini tomonidan olib boriladi. Kulolchilik sirlari, yog‘och o‘ymakorligi, ganchkorlik, kashtado‘zlik, tasviriy san’at, zargarlik kabi bir qator sohalardan mahorat darslari tashkil etilib borilsa, muzey faoliyati yanada rivoj topib boradi. Olis hududlarning muzeylarga kelishga imkoniyati pastligi inobatga olinib, muzeyning sayyor kunlari tashkil etilib borilsa, chekka hududdagi aziz bolajonlarimiz ham muzey jamiyatidan xabardor bo‘lib, ularga bo‘lgan tasavvuri ortadi. Qabul qilingan qarorlarga ko‘ra muzeylarning 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va bolalari bilan muzeyga tashrif buyurgan ota-onalar uchun muzey bepul xizmat ko‘rsatishi lozimligi belgilangan va buncha barcha muzeylar amal qilib kelmoqda.

Muzeylarda tez-tez tashkil etilyotgan ko‘rgazmalar ham muzey tomoshabinlari sonini yildan yilga orttirib boradi.

Jamiyatimizning hamma tashkilotlarida imkoniyati cheklangan insonlar uchun yaratilgan imkoniyatlar yanada yaxshilanib bormoqda, shu jumladan, muzeylar ham chetda qolgani yo‘q. Ko‘zi ojiz, eshitish qobilyatini yo‘qotgan, nogironlik aravachasidan foydalanadigan va boshqa turdag'i imkoniyati cheklanganlarga mos sharoit yaratish ko‘zda tutilgan rejalar oldinga qo‘yilgan, bular asta-sekin amalga oshirilmoqda. Xususan, Tasviriylar san’at galereyasi shu kabi talablarga javob beradigan tashkilotlardan biri hisoblanadi. Kelgusida aminmizki, yurtimizdagi barcha muzeylarda shu kabi imkoniyatlar bekamiko‘st yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. <https://oliymahad.uz/>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muzey>
3. <https://www.lex.uz/uz/>
4. <https://uzreport.news/society/o‘zbekistonda-muzeylar-haftaligi-tadbiri-o‘tkazilmoqda>
5. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. J.X. Ismoilova. M.S.Muxamedova. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2020.
6. Muzeyshunoslik sohasida milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining ahamiyati. M.C.Muxamedova. O‘quv qo‘llanma. Toshkent -2021.
7. Muzey pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Sh.A.Kasimova. Toshkent- 2021.
8. Muzeyshunoslik. O‘quv qo‘llanma. Ch.X.Ganiyeva. Toshkent- 2018.